

So‘z ma’nosini o‘zlashtirishining gender va yosh xususiyatlari bilan bog‘liqligi

Relationship of word meaning acquisition with gender and age characteristics

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU satjyor-o‘qituvchisi
xayrinisomirova06@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada til o‘zlashtirishda sog‘lom aqliy rivojlanishga ega bo‘lgan til o‘zlashtiruvchilarning yosh va gender dunyoqarashiga bog‘liq omillar yoritishga harakat qilamiz. Maqolaning boshlang‘ich qismida so‘z ma’nosini o‘zlashtirishning gender va yosh xususiyatlari jihatdan talqinining dunyo tilshunosligida qay darajada va qaysi olimlar tomonidan o‘rganilganligi xronologik tarzda berilgan. Shaxslarda so‘zlarning ma’nolarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun maxsus tajriba-usullari ishlab chiqilgan va ulardan olingan natijalar jadval ko‘rinishida berilgan. O‘zbek psixolingvistika sohasi uchun muhim xulosani beruvchi ushbu tajriba-sinovlarda respublikaning turli hududlarida istiqomat qiluvchi qatnashuvchilarning 3 xil yosh toifasi ajratib olingan va gender jihatdan o‘ziga xosliklari aniqlangan. Maxsus psixolingvistik tajriba-sinov uchun “kasb nomlari”ni ifodalovchi semantik guruh tanlangan. Maqolamizning so‘ngida so‘z ma’nosini o‘zlashtirishda yosh va gender omillarga oid o‘n beshga yaqin ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Psixolingvistika, so‘z ma’nosи, til o‘zlashtirish, RT(reaction time), erta o‘zlashtirish, kech o‘zlashtirish, gender, tajriba-sinov, jadval, kasb nomlari, leksikon, chastotaviylik.

Abstract. In our article, we try to shed light on the activity of language learners with healthy mental development under the influence of factors related to age and gender outlook. At the beginning of the article, it is chronologically given to what

[Введите текст]


extent and by which scientists the interpretation of word meaning acquisition in terms of gender and age characteristics has been studied in world linguistics. Special experimental methods have been developed to determine the level of mastery of the meanings of words in individuals, and the results obtained from them are given in the form of a table. In these experiments, which provide an important conclusion for the field of Uzbek psycholinguistics, 3 different age groups of participants living in different regions of the republic were distinguished and their gender characteristics were determined. For a special psycholinguistic experiment, a semantic group representing "profession names" was selected. At the end of our article, there are about fifteen scientific conclusions about age and gender factors in mastering the meaning of words.

Keywords. Psycholinguistics, word meaning, language acquisition, RT (reaction time), early acquisition, late acquisition, gender, experience-test, table, occupational names, lexicon, frequency.

Kirish. Jahon tilshunosligida nutq jarayonini nutq akti va so‘zlovchi, axborotni yuzaga keltiruvchi shaxsning maqsadi mazmuni orasidagi munosabat nuqtayi nazaridan o‘rganish, induvidlararo nutqiy faoliyat jarayonlarini tahlil qilish, so‘zlovchining ijtimoiy ongi, ijtimoiy hayoti va tilning mazmun tomoni borasidagi aloqalarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar doirasi kengaymoqda. So‘z ma’nosining o‘zlashtirilishi keng qamrovli jarayonlarni o‘z ichiga olib, bunga bolalar nutqining rivojlanishi, ikki tillilik, bir til doirasidagi so‘zlarning ko‘p ma’nolilik hodisasi, so‘z ma’nosining birinchi til o‘zlashtirilishi samaradorligi va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. So‘z ma’nosini tashkil etuvchi asosiy elementlarni tavsiflash, so‘z ma’nosini til tiziimidan tashqarida ko‘plab individual ma’nolarga ega bo‘lgan konseptual munosabatlar tizimi ekanligini aniqlash, so‘z ma’nosini strukturaviy tizimning elementi sifatida ko‘rib chiqish bilan bir qatorda so‘z ma’nosini o‘zlashtirishning psixolingvistik omillarini tahlil qilish, til, madaniyat va mental leksikon munosabatini o‘rganish til taraqqiyotning dolzarb masalalaridan biridir.

Psixolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri so‘z ma’nosining o‘zlashtirilishidir. So‘z ma’nosini o‘zlashtirishning psixolingvistik omillarini aniqlash, til o‘rganish, tarjima matnlardagi so‘z ma’nosining tushunilishi va psixikada ifoda etilishiga doir masalalarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. So‘z ma’nosini o‘zlashtirishining gender va yosh xususiyatlari bilan bog‘liqlik jihatlarini ilmiy tahlil qilish uchun isbotlangan tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish kerak. Quyida Amerikaning Glasgow universiteti psixolingvistlari: Sara C. Sereno & Patrick J. O‘Donnell¹ tomonidan “AoA”(The age of acquisition) formulasiga tayanilgan, sotsiolingvistik tadqiqotlar asos qilib olingan maqoladan na’muna keltiramiz. Ushbu maqola materiali uchun Shotlandiya universiteti talabalaridan 45 nafar ayol va 47 nafar erkak jinsiga mansub ishtirokchilar tanlab olingan. Ular bilan 100 ta so‘zning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq so‘rovnomaiga asoslangan eksprement o‘tkazilgan. Berilgan so‘zlarni ishtirokchilarning reaksiya (javoblari) ga qarab:



kabi qismlarga ajratishgan.

Reaksiya vaqtি berilgan ma’lumotlarga nisbatan ikkalasi ham sezilarli AoA qo‘zg‘alishni ko‘rsatadi. Ayollar va erkaklar ham ayollarga, ham erkaklarga

¹ Sara C. S. & Patrick J. O‘Donnel. Participant and Word Gender in Age of Acquisition Effects: The Role of Gender Socialization Article in Sex Roles, – Oxford, 2009. – P. 87.

²Gilhooly K. J., & Logie, R. H. Age-of-acquisition, imagery, concreteness, familiarity, and ambiguity measures for 1,944 words. Behavior Research Methods & Instrumentation. – Washington, 1980. – P. 32.

qaratilgan barcha so‘zlar ichidan keyinroq o‘zlashtirilgan so‘zlarga nisbatan tezroq javob beradi. Ayollardagi alohidalik salbiy mazmundagi so‘zlarga, ayniqsa, kech AoA so‘zlariga javob berish reaksiyalari uchun ko‘proq vaqt talab qilindi. Erkaklar so‘zlaning mazmuniga ko‘ra semantik jihatdan deyarli jinsning hech qanday farqini ko‘rsatmadi³.

So‘zlarning ma’nolarini o‘zlashtirish yoshini aniqlashtrish kattalar bilan o‘tkazilgan tadqiqotlarda aniqroq na’moyon bo‘ladi. Sababi bir so‘zning ma’nosи узоқ ўйлар давомида менталниј лексиконда mustahkamlanib boradi va shu ўйлар ichida bu ma’no turli vaziyatlar uchun xoslanib, endi u so‘zning murakkab ma’no qirralari ham miyamizda avtomatlashgan tarzda o‘rin olgan bo‘ladi.

Umuman, so‘zlarning yosh va jins xususiyatiga ko‘ra o‘zlashtirilishi ancha yillardan beri o‘rganilib kelinayotgan, judayam o‘ziga xos mavzulardan biri.

So‘z va uning ma’nolarini o‘zlashtirishga oid hozirgi davrdagi tadqiqotlar ikkita farazga tayanadi:

1. AoA ta’siri katta yoshdagi ayol va erkak populyatsiyalari teng bo‘lishi yoki teng bo‘lmasligini aniqlash;
2. Yoshidan qat’i nazar shaxslarning leksikonidagi (AoA) o‘zlashgan so‘zlarning semantik tabiatи.

Birinchi faraz tadqiqotchilarining xulosalariga ko‘ra, qizlar yigitlarga qaraganda faol so‘z o‘zlashtiruvchilar hisoblanadi, og‘zaki nutq ravon bo‘ladi, erta va kech o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida deyarli farq sezilmaydi, ya’ni kech o‘zlashtirilgan so‘zlarning mentalniј лексикондаги xiralik belgisi ko‘zga tashlanmaydi. Bu yo‘nalishdagi asosiy izlanishlar Burman va boshqalarning ishlarida ko‘zga tashlanadi⁴.

Ikkinci faraz izlanishlarida so‘zlar orasida doim mazmunan umumiј bo‘lgan so‘z bo‘ladi. Shu umumiј ma’noli so‘z mentalniј лексиконда boshqa so‘zlarni bog‘lash vazifasini bajaradi. Ya’ni bu so‘zlarni “jins” so‘zlar deb ataymiz. Jins so‘zlar o‘zini atrofida bir qancha “tur” so‘zlarni bog‘lab xotirada

³ Johnston & Barry A. Special issue of Visual Cognition. – Oxford, 2006. – P. 43.

⁴ Burman D. D., Bitan T., & Booth, J. R. Sex differences in neural processing of language among children. Neuropsychologia. – Washington, 2008. – P. 62.

[Введите текст]

saqlaydi. Masalan, “moshina” so‘zi o‘zini atrofida shu turdagи boshqa so‘zlarni, jumladan, “yuk moshinasi”, “matiz”, “avtobus”, “damas”, “nexia” kabi so‘zlani bir tarmoqqa ulab turadi.

Bolalar kattalar bilan suhbatda bir jinsga tegishli so‘zlar bilan bog‘liq ko‘proq takrorlanadigan vaziyatlarni boshdan kechirsalar, shu jinsdagi so‘z mazmuniy qatoridagi tarmoq mustahkam bog‘langan bo‘ladi. Bir semantik jinsli so‘zlar qarama-qarshi semantik mazmundagi so‘zga nisbatan tezroq va osonroq o‘zlashadi.

Ushbu qarashlarga tegishli eksprementlar kontekstda “reaksiya vaqtı” RT (reaksion time) da haqiqiy leksik qarorni ta’minlovchi leksemani aniqlab beradi.

Erta va kech o‘zlashuvchi AoA so‘zlari ayollar uchun xos bo‘lgan va erkaklar leksikonining lug‘at tarkibiga xos bo‘lgan turlarga ajraladi. Buni aniqlash uchun esa, yuqorida aytganimizdek, katta yoshli insonlarda tajriba o‘tkazish kerak.

So‘z ma’nolarining o‘zlashtirilishida yosh va jinsga ko‘ra tadqiq qilishning natijasi bizga so‘z ma’nolarining shaxs mentalida rivojlanish ko‘rinishlarini aniqlashga, turli jinsda bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvida leksikalarning o‘rnini belgilab olishga imkon yaratadi.

So‘zlarning qo‘llanilish chastotasi ham so‘z ma’nosи o‘zlashtirilishini ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Bu ko‘proq kattalar bilan o‘tkaziladigan tajribadan aniqlanadi. Ya’ni biror shaxsning nutqida muloqat davomida ko‘p qo‘llanadigan so‘z shu shaxsning mental leksikoniga erta davrda o‘zlashgan leksikalardan biri ekanligini bilish mumkin. Va bu ko‘p takrorlanayotgan baland chastotaga ega bo‘lgan so‘z semantikasi noziklik yoki dag‘allik xarakteriga ko‘ra ayol yoki erkak so‘zlovchiga tegishli ekanligini ham biroz anglatadi.

Erta o‘zlashtirish davrida salbiy stimulli birliklar e’tiborni ko‘proq tortadi, jalb qiladi, chuqur kognitiv qayta ishlanadi, natijada murakkab kognitiv tarmoqlar yuzaga keladi, mana shu miyadagi murakkab va mustahkam bog‘lanishli tarmoqlar salbiy ma’nodagi leksik birliklarning shaxs xotira maydonida izini uzoq vaqt saqlanishiga sabab bo‘ladi.

[Введите текст]

So‘zlarning yosh va jinsga ko‘ra o‘zlashtirish borasidagi yuqoridagi xulosalarni yanada aniqlashtirish maqsadida va o‘zbek tilining imkoniyatlari bu borada qanday ishlashini qisman bo‘lsada ochiqlash maqsadida biz ham bir tajriba o‘tkazdik.

Ushbu tajribamiz “8 daqiqa” deb nomlanadi. Sababi tajribamizda sakkiz daqiqalik vaqt mobaynida til o‘zlashtiruvchilarning lug‘at boyligini so‘z o‘zlashtirish yoshi va jinsiga ko‘ra tahlil qilishda kasb so‘zlarni chegaralab oldik. Bunga ko‘ra uch toifa yoshdagi guruhlarda tajriba o‘tkazildi:

1. 1 yarim yoshdan 3 yosh oralig‘idagi bolalar;
2. 8 yoshdan 10 yosh oralig‘idagi bolalar;
3. 16 yoshdan 18 yosh oralig‘idagi o‘smirlar;

Tajribaning o‘tkazilish tartibi:

- belgilangan yoshdagi 5 nafar qiz va 5 nafar o‘g‘il bolalar tanlab olindi;
- birinchi toifa bolalari hali yozish ko‘nikmasiga ega emasligi sababli, ularning ota-onalaridan so‘rovnama shaklida yozib olindi;
- ikkinchi va uchinchi toifadagi bolalarga RT(Reaktion Time) – qo‘zg‘alish vaqt belgilandi: sakkiz daqiqa.
- belgilangan vaqt davomida bolalar xayoliga eng birinchi va tez kelgan kasb nomlarini qog‘ozga tushirib berdi;
- berilgan javob varaqalari tepasiga ism-familya va qatnashuvchining yoshi yozib qo‘yildi.

Yig‘ib olingan natijalar:

- kasb nomlarini ifodalovchi so‘zlarning miqdori yoshta nisbatan qay darajada o‘sib borishi va qaysi omilga ko‘ra?;
- o‘zbek bolalarining leksikonidan ilk bora qaysi kasb nomlarining o‘zlashtirilishi va nima uchun?;
- o‘zlashtirilgan kasb nomlarining jinsga xos tafovutlari mavjud yoki mavjud emasligi va mavjud bo‘lsa, nima uchun?

[Введите текст]

kabi savollarga javob berish orqali tahlil qilinadi.

Ushbu tajribadan maqsad, o‘zbek tilida psixolingvistik tajribalar ko‘lamini boyitish, olingan natja va xulosalar orqali o‘zbek tilining umumiy qonuniyatlarining yana bir qirrasini ochishga hissa qo‘sish, o‘zbek bolalarining kasb bilan bog‘liq kognitiv bilim darajasini aniqlash va boshqalar.

“8 daqiqa” tajribasinnng ilk qatnashuvchilari 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ota-onalaridan so‘rovnoma o‘tkazish orqali ulardagi kasb nomlarining o‘zlashtirilish miqdori va turini tahlil qildik.

Bunga ko‘ra, o‘zbek tili ona tili bo‘lgan 20 ta bolani tanlab oldik. Shundan 12 tasi o‘g‘il bola, 8 tasi qiz bola retsipyent ishtirok etdi. Bolalarning yoshi 1,5 yarim yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan oraliqda edi. Barcha bolalarda ilk o‘zlashtirilgan kasb nomi “doktor” so‘zi ekan. “doktor” so‘zi 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar leksikonidan, avval, perceptiv jihatdan, ya’ni idrokiy o‘rin oladi, 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda “doktor” so‘zi faol lug‘atga aylanadi.

FISH	Yoshi	Dok tor	Us toz	Osh paz	As kar	Uchuv chi	Sotuv chi	Haydov chi	Politsiya chi	Raq qosa	Ashula Chi	quruvchi
Y1	1 yosh 6	+(i)										
Y2	1 yosh 10	+(i)			+(i)							
Y3	1 yosh											
Y4	2 yosh	+(i)					+(i)		+(i)			
Y5	2 yosh	+(i)			+(f)					+(i)		
Y6	2 yosh 4	+(f)		+(i)	+(f)	+(i)	+(i)					+(i)
Y7	2 yosh 8	+(f)	+(f)				+(f)	+(i)			+(i)	+(f)
Y8	3 yosh 5	+(f)			+(f)				+(f)			
Y9	3 yosh	+(f)	+(f)			+(i)						+(f)
Y10	3 yosh 4	+										
Y11	3 yosh 11	+(f)	+(f)	+(f)			+(i)					
Y12	3 yosh	+										
Q1	1 yosh 6oy	+(i)					+(i)					
Q2	1 yosh 6oy	+(i)		+(i)						+(i)		
Q3	1 yosh 10	+(i)					+(i)	+(i)				

[Введите текст]

	oy										
Q4	2 yosh	+(f)	+(f)		+(i)	+(i)	+(i)		+(x)	+(f)	
Q5	2 yosh 3 oy	+(f)								+(i)	+(i)
Q6	2 yosh 8 oy	+(f)	+(i)		+(f)		+(i)				
Q7	3 yosh	+(f)	+(f)	+(f)		+(f)	+(f)	+(f)	+(f)	+(f)	+(f)
Q8	3yosh	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

Tajriba natijasiga ko‘ra, 1 yarim yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan o‘zbek bolalari minimal 1ta, maksimal 11 ta kasbga oid so‘zlarni perseptiv va produktiv o‘zlashtirishadi. Kasb nomlari ichidan “doktor” so‘zi barcha bolajonlarning, avval, idrokidan keyin faol lug‘atidan joy egallaydi(100%). Ikkinci o‘rinda “sotuvchi” so‘zi(49%), uchinchi o‘rinda “ustoz” va “askar” so‘zi(47%), to‘rtinchchi o‘rinda “quruvchi”(45%), beshinchi o‘rinda “uchuvchi”, “oshpaz”, “politsiyachi”, “raqqosa” va “ashulachi”(40%), oxirgi o‘rinda “haydovchi” so‘zi(38%) o‘zlashtirilgan.

Demak o‘zbek bolalarida til o‘zlashtirishning boshlang‘ich bosqichida kasbga oid o‘rtacha 11 ta so‘z o‘zlashtiriladi. O‘zlashtirish darajasining yuqori va pastligi, ayanan shu kasb nomlarining ko‘proq bolalar tomonidan o‘zlashtirishiga tilning umumiy qoidalardan ko‘ra kattalarning bolaga qaratilgan nutqida, aynan shu so‘zlarning ko‘p takrorlanishi va shu kasb bilan bog‘liq viuzal kognitiv jarayonlarda bolaning ishtiroki borligini sabab qilib ko‘rsata olamiz.

Ikkinci toifa qatnashuvchilar Toshkent shahar Olmazor tuman 298-maktabning 7 yoshdan 9 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilaridan iborat. Qatnashuvchilar soni 10 nafar: 5 nafar o‘g‘il va 5 nafar qiz. Ajratilgan vaqt 8 daqiqa. Shu vaqt mobaynida qatnashuvchilar turli miqdordagi kasb nomlari ro‘yhatini taqdim etishdi.

Qoidaga ko‘ra 8 daqiqa vaqt ajratilgan. Shu vaqt mobaynida ishtirokchi boalalr turli miqdordagi kasb nomlari ro‘yhatini taqdim etishdi. Minimal 7 tadan maksimal 22 ta kasb nomlarini yozishgan. Bu miqdoriy farq, albatta, o‘smirning produktiv lug‘ati faolligini ko‘rsatadi. Bu faollik esa, shaxsiy intelekt bilan ham

[Введите текст]

bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu omillarni hisobga olgan holda keltirilgan misollar ichidan eng ko‘p qo‘llanilganlarini belgilab 12 ta so‘zni ajratib olamiz.

FISH	Doktor	Us toz	Quruvchi	Tikuvchi	Uchuvchi	Aktyor	Oshpaz	Rassom	Sotuvchi	Haydovchi	Militsiya	Sartarosh
Y1	+	+	+	+	+		+		+	+		+
Y2	+	+			+				+			
Y3	+	+		+		+						+
Y4	+	+	+	+	+	+	+	+				
Y5	+	+	+					+				
Q1	+	+		+	+	+						
Q2	+	+	+						+		+	
Q3	+	+		+	+							
Q4	+	+	+	+	+	+			+	+	+	
Q5	+	+	+	+	+	+	+	+	+		+	+

Yuqoridagi jadvalga qarab xulosa qilishimiz mumkinki, 7-9 yoshli bolalarda kasb nomlarining o‘zlashtirilishi bir-birida uchramaydigan so‘zlar ko‘p ekanligi bilan boshqa yosh toifadagilardan farq qiladi. Sababi biz ushbu jadvalga hamma bolalarning misollarini umumiylashtirib nisbatan takrorlangan kasb nomlarini jadvalga solganimizda ham, boshqa yosh toifasidagi bolalarnikidek son jihatdan bir-biriga yaqin so‘zlar juda kamchilikni tashkil qiladi. 7-9 yoshli bolalar tengdoshlaridan farqli turli xil kasb nomlarini mental leksikonlarida saqlashadi. Yana ularning farqli tomoni boshqa yosh toifalarida deyarli uchramaydigan so‘zlar: “rassom”, “olim”, “muharrir” va “haykaltarosh” kabi san’at sohasi bilan bog‘liq so‘zlarining ko‘p qo‘llanilishi hamda “do‘konchi” so‘ziga o‘xshagan noodatiy yasalma kasb nomining yozma nutqda jonlanishi 7-9 yoshli bolalar nutqiy ko‘nikmalaridagi g‘ayriodatiy rivojlanish holatini o‘rganish va tahlilga tortish kerakligini ko‘rsatmoqda.

7-9 yoshli bolalarda ham boshqa yosh toifasidagi ishtirokchilar kabi, qiz bola o‘zlashtiruvchilar o‘g‘il bola o‘zlashtiruvchilarga nisbatan (37-28=9) 9% foiz nisbatiga so‘z boyligi ko‘roq ekan.

Uchinchi toifa qatnashuvchilar Toshkent shahar Olmazor tuman 298-maktabning 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilaridan iborat. Qatnashuvchilar soni 10 nafar: 5 nafar o‘g‘il va 5 nafar qiz. Ajratilgan vaqt 8

[Введите текст]

daqqa. Shu vaqt mobaynida qatnashuvchilar turli miqdordagi kasb nomlari ro‘yhatini taqdim etishdi. Eng kam ko‘rsatilgan kasb nomlari 12 ta va eng ko‘p ko‘rsatilgani 37 tani tashkil etadi. Bu miqdoriy farq, albatta, o‘smirning produktiv lug‘ati faolligini ko‘rsatadi. Bu faollik esa, shaxsiy intelekt bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘smir yoshdagi qatnashchilarimizning yoshga doir kasb nomlarini o‘zlashtirilishini tilga bog‘liq holda tahlil qilish maqsadida, dunyo psixolingvistlarining tajribalariga tayanib, “ReactionTime” eng qo‘zg‘aluvchi vaqt va so‘zlar ichida chostatasi baland so‘zlar sifatida dastlabki 8 daqiqani belgilab olganimizda o‘rtacha 16 ta birinchi kelgan so‘zlarni yosh va jinsga bog‘liq tahlilini qilishimiz mumkin.

FISH	Dok tor	O‘qituv Chi	Git	Program Mist	Etik do‘z	Uchuv Chi	Bankir	Akt yor	Tikuv chi	Quruv Chi	Osh paz	Jurna list	Sotu vchi	Haydov Chi	Milits Iya	Sarta rosh
Y1	+	+	+	+	+	+			+	+	+	+	+	+	+	+
Y2	+	+		+	+	+	+		+	+		+	+	+	+	
Y3	+	+		+	+		+	+	+	+		+	+	+	+	
Y4	+	+		+		+		+	+	+		+	+	+	+	+
Y5	+	+	+	+	+	+	+	+			+					+
Q1	+	+							+	+	+	+	+	+		+
Q2	+	+	+	+	+	+			+	+	+	+	+	+		
Q3	+	+	+	+	+	+	+		+	+	+	+	+	+	+	+
Q4	+	+	+	+	+		+	+	+	+						+
Q5	+	+	+	+		+		+			+	+				+

Yuqoridaagi jadvalga qarab quyidagicha xulosalarni berishimiz mumkin:

- ✓ so‘zlovchi shaxsning yoshi ulg‘aygan sari uning leksikonida ma’lum bir leksik guruhga mansub so‘zlarining hajmi ortib boradi. Ya’ni o‘rtacha hisobda oladigan bo‘lsak 2-3 yoshda kasb guruhiga kiruvchi so‘zlar hajmi faollik jihatdan 3-4 dona so‘zni, mazmuniy jihatdan olganda 5-6 tani tashkil etsa, 7-9 yoshda o‘rtacha 10-15ta faol lug‘atni, 16-18 yoshda esa 20-30 ta so‘zni tashkil etyabdi;
- ✓ dastlabki til o‘zlashtirish davrida egallangan so‘z va uning ma’nosi doim ma’lum guruhga oid leksemalar tarmog‘ida stimul bo‘lganda birinchi jonlanadi va xotirada chuqur iz oladi. Ya’ni yuqoridaagi tajribalar jadvalida ko‘rinib turganidek, o‘zbek tili birinchi til bo‘lgan o‘zlashtiruvchilar uchun kasb nomlari guruhi ichida “doktor” va “o‘qituvchi” so‘zlari 1-3 yosh

[Введите текст]

davrdanoq perceptiv va keyingi o‘rinlarda produktiv shaklda o‘zlashtirilgan.

Katta yoshli toifa o‘zlashtiruvchilariga ham “kasb nomlari ro‘yhatini shakllantiring” degan stimul berilganda 98% qatnashuvchilar “doktor” va “o‘qituvchi” so‘zlarni ro‘yhatning boshida keltirishgan;

Kasb nomlarini ifodalovchi so‘zlaning o‘zlashtirilishini gender jihatdan tahlil qilganda, ushbu guruhni tashkil etuvchi so‘zlarni 3 xil toifaga ajratish mumkin:

1. Yigitlarga xos so‘zlar – tajriba natijalarini umumlashtirib, yigitlar tomonidan yuqori qiymat berilgan so‘zlar. Bularga, “militsiya”, “uchuvchi”, “etikdo‘z”, “askar”, “aktyor”, “bankir”, “sotuvchi” so‘zlari kiradi.
2. Qizlarga xos so‘zlar – tajriba ntijalarining umumiyligi holatiga ko‘ra qizbola qatnashuvchilarning yuqori qiymatda berilgan so‘zlarini yozib chiqamiz. Bular: “tikuvchi”, “oshpaz”, “git”, “raqqosa”, “sartarosh”, “jurnalist”.
3. Umumiyligi so‘zlar – bunday so‘zlar ham yigitlar, ham qizlarning faol va nofaol lug‘atidan birdek o‘rin olgan bo‘ladi. Tajriba natijasining materialllariga ko‘ra, keltirilgan 16 ta so‘zdan: “o‘qituvchi”, “doktor”, “haydovchi”, “programmist” va “quruvchi” so‘zlari kiradi. Sababi ushbu so‘zlar yigit va qizlar bergen ro‘yhatda deyarli teng qiymatda yozilgan.

Xulosa. Har bir so‘zning ma’nosini o‘zlashtirish jarayonida yoki o‘zlashtirilgan so‘zlarning bazasini tekshirib tahlil qilishda psixolingvistika sohasi ahamiyatlidir. So‘z ma’nolarining o‘zlashtirilishi bilan aloqador nazariyalarni o‘rganib, o‘zbek tili ona tili bo‘lgan bolalarda bu jarayon qanday kechishi mumkinligi to‘g‘risidagi o‘zbek psixolingvistikasing nazariy asoslari uchun quyidagi xulosalarni beramiz:

1. Tilning xususiyatlari shu tildagi so‘zlarning o‘zlashtirilishiga ta’sir qiladi.

Masalan, o‘zbek tilida ilk o‘zlashtiluvchi so‘zlarning tovush tarkibi va ma’lum smartik guruhlari bor.

[Введите текст]

2. So‘z va uning ma’nolarini o‘zlashtirish jarayoni bola bir so‘zni qayta-qayta eshitganda mental leksikoniga bu so‘zning xotira chiziqlari joylanishi oqibatida boshlanadi.
3. Bolalar so‘zlarni tovushlarni taqlid qilish orqali o‘zlashtirishadi. Va bu o‘zgarmas qonuniyat.
4. O‘zlashtirilgan so‘zlarning ma’nolari izohli lug‘atlardagi kabi barcha til egalari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalardan tashqari shaxsiy ma’no ham kasb etadi. So‘z ma’nosi nutq jarayonida shaxsiy ma’noga aylanadi.
5. Nutqni jonli muloqat jarayonida emas, balki o‘rganish jarayonida egallagan kar-saqovlar ko‘pincha so‘zlarning faqat bir ma’nosini o‘zlashtiradi.
6. So‘z ma’nolarini o‘zlashtirish deyilganda, nafaqat so‘zning eng yaqin ma’nosini tushunish, balki ularning orqasida yashiringan semantik (vizual yoki mavhum) bog‘lanishlar tizimini idrok etishni nazarda tutiladi.
7. So‘z ma’nosining o‘zlashtirilishi doimiy va u shaxsing aqliy leksikoni va ruhiyati bilan birgalikda yashaydi. Ya’ni bir so‘zning ma’nosi shaxs ongida doimiy yangilanib boyib boradi.
8. Bolalarda 2-5 yosh oralig‘idan boshlab o‘zining gender roliga tegishli ijtimoy bilimlarga ega bo‘la boshlaydi va bu davrda egallangan bilimlar bola ongida mustahkam sterotip darajasida o‘rin oladi.
9. So‘z ma’nolarini erta o‘zlashtirish davrida salbiy mazmunga ega so‘zlarni egallahsha moyillik kuchli bo‘ladi. Bunday so‘zlar bolaning mental leksikonidan tezroq va osonroq joy olishini, xotirada izi uzoq saqlanishi, erkin muloqatda ham salbiy ma’noli so‘zlardan foydalanish tezligi ijobiy ma’nodagi so‘zlarnikiga qaraganda faolroq kechishi psixologlar tomonidan tadqiq qilingan. Va buni tilning umumiy qonuiyatiga aloqasi yo‘q, shunchaki inson tabiatiga xos xususiyat deb bahonalandi.
10. Erta yosh davrida, asosan, bevosita tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar, jumladan, hayvonlar nomlari ularning tovushlariga taqlid shaklida o‘zlashtiriladi.

11. Kech yosh davrida o‘zlashtirilishi ehtimoli bo‘lgan so‘zlar mavhum mazmumdagи nomlar, taom va oshxona jihozlari va ko‘proq kognitiv bilim talab qiladigan lug‘atni tashkil qiladi.
12. Barcha bolalarda ilk o‘zlashtirilgan kasb nomi “doktor” so‘zi ekan. “doktor” so‘zi 1yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar leksikonidan, avval, perceptiv jihatdan, ya’ni idrokiy o‘rin oladi, 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda “doktor” so‘zi faol lug‘atga aylanadi.
13. O‘zbek bolalarida til o‘zlashtirishning boshlang‘ich bosqichida kasbga oid o‘rtacha 11 ta so‘z o‘zlashtiriladi. O‘zlashtirish darajasining yuqori va pastligi, ayanan shu kasb nomlarining ko‘proq bolalar tomonidan o‘zlashtirishiga tilning umumiyligini qoidalaridan ko‘ra kattalarning bolaga qaratilgan nutqida, aynan shu so‘zlarning ko‘p takrorlanishi va shu kasb bilan bog‘liq viuzal kognitiv jarayonlarda bolaning ishtiroki borligini sabab qilib ko‘rsata olamiz.
14. Yigitlarga qaraganda qizlar erta o‘zlashtirish davridan faol o‘zlashtiruvchi hisoblanadi, qizlarda perceptiv lug‘at yigitlarga qaraganda tezroq faol lug‘atga aylanadi. Bu qizlarning emotsiyaga boyroq ekanligi va buni nutqda ifodalashga harakat qilishi bilan baholandi.
15. So‘z ma’nosи o‘zlashtirilishining psixolingvistik asoslari:
 - Tilning o‘ziga xos umumiyligini qonuniyatlari;
 - O‘zlashtiruvchining individual nutqiy qobiliyati;
 - Bolaga qaratilgan nutqning sifati;
 - O‘zlashtiruvchining gender roliga mos sterotiplarning to‘g‘ri tanlanganligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Bonin P., Barry C., Méot A., & Chalard M. The influence of age of acquisition in word reading and other tasks: A never ending story? – Oksford: Journal of Memory and Language, 2004. – P. 456-476.

[Введите текст]

2. Bowerman M., & Choi S. Space under construction: Language-specific spatial categorization in first language acquisition. *Language in mind: Advances in the study of language and thought*. – Cambridge: MA. MIT Press, 2003. – P. 387-427.
3. Braine M.D. The ontogeny of English phrase structure: the first phase // *Language*. – America, 1963. – 113 p.
4. Eric F. *The Language of Silence*. – Washington, 2021. – 373 p.
5. Clark V. Eve. *Second Language Acquisition*. – California, 2016. – 610 p.
6. Fathman A. The relationship between age and second language productive ability // *Language Learning*, – French, 1975. – 342 p.
7. Fernando M. *The Nature and Functions of Inner Speech*. – Granada, 2011. – 209 p.
8. Fraser C., Belugi U., Brown R. Control of grammar in imitation, comprehension, and production. – Cambrige: *Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior*, 1963. – 132 p.
9. Gary L. The role of language in semantic knowledge, Department of Psychology. – Madison, 2006. – 72 p.
10. Gilhooly K. J., & Logie, R. H. Age-of-acquisition, imagery, concreteness, familiarity, and ambiguity measures for 1,944 word. – German: *Behavior Research Methods & Instrumentation*, 1980. – P. 68-76.
11. Izura C., Agallou, E., Wright, V. C., Marín, J. Age-order of acquisition effects and the cumulative learning of foreign words: A word training study. – America: *Journal of Memory and Language*, 2011. – 146 p.
12. Jay I. *Talk, Talk, Talk: Decoding the Secrets of Speech*. – England: Doubleday, 1992. – 110 p.
13. Johnston R. A., Barry C. Special issue of *Visual Cognition*. – Washington, 2006. – 121 p.
14. Johnston R., Barry C. Age of acquisition and lexical processing. *Visual Cognition*. – Washington, 2006. – 132 p.

[Введите текст]

15. Петренко В.Ф. Основы психосемантики. – Смоленск, 1997.
16. Қулиев М., Норбошева М. Мактабгача ёшдаги болаларда нутқ маданиятининг ривожланиши. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети. Тўплам, 1990.
17. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Филол.фан.номз...дис. – Тошкент, 2009. – 154 б.
18. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол.фан. док...дис. – Тошкент, 2018. – 240 б.
19. Sara C. S. & Patrick J. O'Donnell. Participant and Word Gender in Age of Acquisition Effects: The Role of Gender Socialization Article in Sex Roles. – Washington, 2009. – 24 p.
20. Steven Pinker: Linguistics as a Window to Understanding the Brain. – New York, 2012. – 46 p.
21. Taine H. On the acquisition of language by children. Mind. – Cambrije 1876. – 81 p.
22. Vygotskiy L. S. Thinking and speech. – Washington, 2018. – 246 p.
23. William M. R. and Gloria Miller. Psychology. – New York, 2003. – 842 p.
24. Ўрдабекова Х.А. Сөздинқ психологиялық мағинасы мен құрылымы. – Астана, 2017. – 54 с.
25. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2020. – 343 b.
26. Цветкова Л.С. Мозг и интеллект. – Москва: Просвещение, 1995. – 304 с.

LITERATURE REVIEW

1. Bonin P., Barry C., Méot A., & Chalard M. The influence of age of acquisition in word reading and other tasks: A never ending story? - Oxford: Journal of Memory and Language, 2004. - P. 456-476.
2. Bowerman M., & Choi S. Space under construction: Language-specific spatial categorization in first language acquisition. Language in mind: Advances in the study of language and thought. – Cambridge: MA. MIT Press, 2003. - P. 387-427.

[Введите текст]

3. Braine M.D. The ontogeny of English phrase structure: the first phase // Language. - America, 1963. - 113 p.
4. Eric F. The Language of Silence. - Washington, 2021. - 373 p.
5. Clark W. Eve. Second Language Acquisition. - California, 2016. - 610 p.
6. Fathman A. The relationship between age and second language productive ability // Language Learning, - French, 1975. - 342 p.
7. Fernando M. The Nature and Functions of Inner Speech. - Granada, 2011. - 209 p.
8. Fraser C., Belugi U., Brown R. Control of grammar in imitation, comprehension, and production. - Cambridge: Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 1963. - 132 p.
9. Gary L. The role of language in semantic knowledge, Department of Psychology. - Madison, 2006. - 72 p.
10. Gilhooly K. J., & Logie, R. H. Age-of-acquisition, imagery, concreteness, familiarity, and ambiguity measures for 1,944 word. - German: Behavior Research Methods & Instrumentation, 1980. - P. 68-76.
11. Izura C., Agallou, E., Wright, V. C., Marín, J. Age-order of acquisition effects and the cumulative learning of foreign words: A word training study. – America: Journal of Memory and Language, 2011. – 146 p.
12. Jay I. Talk, Talk, Talk: Decoding the Secrets of Speech. - England: Doubleday, 1992. - 110 p.
13. Johnston R. A., Barry C. Special issue of Visual Cognition. - Washington, 2006. - 121 p.
14. Johnston R., Barry C. Age of acquisition and lexical processing. Visual Cognition. - Washington, 2006. - 132 p.
15. Petrenko V.F. Basic psychosemantics. - Cmolensk, 1997.
16. Quliev M., Norbosheva M. Development of speech culture in preschool children. - Samarkand: Samarkand State University. Collection, 1990.
17. Kurbanova M. Sociopsychological study of Uzbek children's speech lexicon. Philol.fan.nomz...dis. - Tashkent, 2009. - 154 p.

[Введите текст]

18. Kurbanova M. Pragmatics of Uzbek children's speech features. Philol. science. doc...dis. - Tashkent, 2018. - 240 p.
19. Sarah C. S. & Patrick J. O'Donnell. Participant and Word Gender in Age of Acquisition Effects: The Role of Gender Socialization Article in Sex Roles. - Washington, 2009. - 24 p.
20. Steven Pinker: Linguistics as a Window to Understanding the Brain. - New York, 2012. - 46 p.
21. Taine H. On the acquisition of language by children. Mind. - Cambridge 1876. - 81 p.
22. Vygotsky L. S. Thinking and speech. - Washington, 2018. - 246 p.
23. William M.R. and Gloria Miller. Psychology. - New York, 2003. - 842 p.
24. Ordabekova K.A. I made the psychological meaning of the word. - Astana, 2017. - 54 c.
25. An explanatory dictionary of the Uzbek language. - Tashkent, 2020. - 343 p.
26. Tsvetkova L.S. Brain and intellect. - Moscow: Prosveshchenie, 1995. - 304 c.